

## BOSHLANG`ICH SINIF O`QUVCHILARIDA ODOB –AXLOQ TUSHUNCHASINI SHAKLLANTIRISH

**Shamsutdinova Barno Obidjonovna**

*Andijon viloyati Izboskan tumani*

*10-umumiy o`rta ta`lim maktabi Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu Maktablarda joriy etilgan "Tarbiya" darslarini loyihalashda, uning asosiy g'oya va maqsadlarini o'quvchilar ongiga to'liq singdirishda darslarni o'quvchilar yoshi, fiziologik holatidan kelib chiqqan holda, har bir o'quvchi shaxsiga individual yondashish asosida darslarni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etishi haqida so`z boradi.*

**Kalit so`zlar:** *maktab, ta`lim, tarbiya, yondashish, tashkil qilish, shakllantirish, shaxs, maqsad, g'oya.*

Odobnoma darslari farzandlarimizda insof, adolat, iymon-e'tiqod, vijdon va mehr-muhabbat hislarini tarbiyalashga qaratilgandir. "Odobnoma" darslari o'quvchilarni xalqimizning unitilayotgan boy tarixi, madaniy va ma'naviy merosi, so'z san'ati, xalq pedagogikasi va milliy qadriyatlari bilan tanishtiradi.

Mazkur hujjatlarni hayotda tadbiiq etish maqsadida 1998-1999 o'quv yilidan umumta'lim maktablariga I-IV sinflariga tarbiya sifatida "Odobnoma" fani davlat o'quv rejasi asosida o'qitiladigan bo'ldi. "Odobnoma" dasturi I-IV sinflar uchun mavjud dastur asosida, zamon talabiga mos ravishda yangidan qayta ishlab chiqildi. Odob va axloq ilmini farzandlarimiz ongi va qalbiga singdirishimizda o'qituvchilarimizga maktab, oila, mahalla va keng jamoatchilik yaqindan yordam berishlari zarur.

Odobnoma ilmi-Vatan tuyg'usi salom berish odobi, oilada milliy urf-odat va an'analarga rioya qilish demakdir. Xalq pedagogikasi, ota-onalar nasihatlarini, xalq og'zaki ijodiyoti materiallari bo'lmish doston, ertak, rivoyat hamda buyuk shaxslar ijodi, hayotidan namunalar keltirish va ular o'gitlarini o'rganish orqali murg'ak qalbni tarbiyalashdir. I-IV sinflarda "Odobnoma" dasturi oddiydan murakkabga qarab boradi. Biri ikkinchisini to'ldiradi, boyitadi. I-sinfda "Odob salomdan boshlanadi" mavzusida o'quvchilarga dastlabki salomlashish odobi o'rgatiladi. II-sinfda u asta-sekin rivojlantirilib, "Yaxshi so'z-jon ozig'i" mavzusiga bog'lanib ketadi. III-sinfda "Orastalik-yaxshi odob" mavzusiga doir darsda insonlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi vosita, ularning odobi ochiq chehrali ekanligini, IV-sinfda "Odob-inson ziynati" mavzusida salomlashish, xushxulqlik, insondagi odoblilik fazilat ekanligini asoslab beriladi. Shuningdek, bolalarga yoshligidanoq nima savobu nima gunoh, nima halolu nima harom kabi o'zbekona turmush tarziga xos tushunchalarni o'rganishga ahamiyat berish zarur.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan ko'plab islohotlarning asosiy mazmun-mohiyatida, olib borilayotgan chora-tadbirlarning, keng ko'lamlil ishlarining tub zamirida, albatta, "Inson omili" yotadi. Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyevning tashabbuslari bilan mamlakatimiz hayotida tub burilishlarni amalga oshirish, Vatanimizda yashab o'tgan buyuk darg'alarimiz, olim-u

fuzalolarimizni ishini davom ettirish maqsadida yoshlar bilan birgalikda III Renesansni tamal toshlarini qo'yishdek buyuk mas'uliyatli vazifani har bir soha vakili, o'z yurtining jonkuyar, fidoiy kishilari bilan birgalikda amalga oshirish masalasi o'zining dolzarbligi va ahamiyatini yana chuqurroq namoyish etadi.

Tarbiya jarayonining mohiyati inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlari va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish mamlkatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaralmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim mazmuni, uning samaradorligiga katta ahamiyat berilib, davlat ta'lim standarti o'quv dasturlarining yangi tahrirdagi ko'rinishlari tajriba sifatida amaliyotga joriy etilmoqda.

Odobnoma darslari farzandlarimizda insif, adolat, iymon-e'tiqod, vijdon va mehr-muhabbat hislarini tarbiyalashga qaratilgandir. "Odobnoma" darslari o'quvchilarni xalqimizning unitilayotgan boy tarixi, madaniy va ma'naviy merosi, so'z san'ati, xalq pedagogikasi va milliy qadriyatlari bilan tanishtiradi.

Odob va axloq ilmini farzandlarimiz ongi va qalbiga singdirishimizda o'qituvchilarimizga maktab, oila, mahalla va keng jamoatchilik yaqindan yordam berishlari zarur.

Shuningdek, bolalarga yoshligidanoq nima savobu nima gunoh, nima halolu nima harom kabi o'zbekona turmush tarziga xos tushunchalarni o'rganishga ahamiyat berish zarur.

I-IV sinflar uchun yangi yaratilgan "Odobnoma" dasturining ahamiyati shundaki, kerak bo'lgan o'rinda Qur'on, Hadis ilmidan foydalangan holda, diniy aqidaparastlikni oldini olish masalalari ham ochib berilgan. Darslardagi har bir mavzu bolalarning kundalik hayoti, turmush tarzi bilan bog'langan. Har bir bo'lim va mavzular tarbiyaviy jarayondan ayricha emas, o'qituvchi mavzularni o'zi yashayotgan mahalliy sharoitdan ham olishi mumkin. Tarixiy, madaniy, rasm-rusmlar dars yo'nalishini tashkil etadi.

I-IV sinflar uchun "Odobnoma" fani bo'yicha mazkur yaratilgan mazkur dasturidagi bo'lim mavzularida boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari, bilim darajalari hisobga olingan. Ular asta sekin takomillashtirib rivojlantirilgan. Buyuk hazrat Alisher navoiy "Haqiqiy sharaf hayo va odobdan keladi" - degan edi. Darhaqiqat, odob muammosi kishilik jamiyati paydo bo'lgan davrdan boshlab, xalq ijodining mahsuli-afsona, ertak, doston, maqol, rivoyat va hikoyalarda o'z ifodasini topgan. Mustaqillik sharofatida o'zbek diyorida xalqimizning o'z ona tili va madaniyatiga bo'lgan e'tibori kuchayadi. Biz shu ona tilimiz orqali mutafakkir va ma'rifatparvarlarning asarlarini dilimizga jo qilamiz. Shuning uchun "Odobnoma" darslarida sof o'zbek tilida so'zlashga alohida ahamiyat berish lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik, qilish, ochiq ko'ngillik, millatidan qat'iy nazar odamlarga hayrixoxlik bilan munosabatda bo'lish va o'zaro yordam tuyg'usi kishilar o'rtasidagi munosabat me'yoriy hisoblanadi. O'zbeklar diyorida, o'z vataniga mehr muruvvat, mehnatsevarlik, bilimga,

uztozlariga, ma'rifatparvarlarga nisbatan alohida hurmat-ehtirom O'zbekiston aholisiga hos fazilatdir", - deb ta'kidladilar.

Odob va axloq malakasini singdirish va bolalarga yoshlikdan komillikka intilish his-tuyg'ularini shakllantirish uchun quyidagi tamoyillarga amal qilinishi nazarda tutiladi.

- respublikamizda boshlang'ich sinf o'quvchilariga ma'naviy-axloqiy tarbiya berishda sog'lom muhit ustivorligiga erishish:

-ta'lim va tarbiyaning uzluksizligiga ahamiyat berish:

-ta'lim va tarbiya jarayonida bola ruhiyatini tarbiyalash:

-ta'lim tarbiyani dunyoviy tasnifda shakllantirish:

-jamiyatda, xalqimizga bo'lgan muhabbat va sadoqatni tarbiyalash:

-vatan ravnaqi yo'lida halol va fidokorona mehnat qilish:

- suhbat, munozara, ma'ruzalar, ertaklar, musobaqalar uyishtirish, xalq og'zaki ijodi namunalari hamda bolalar ongini o'stiruvchi asarlardan foydalanish va shu kabilar.

### ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Toshpulatov, D., Nosirov, B., & Khalmatov, T. (2021). Gradual Implementation of Smart Management Principles in The Higher Education System of Uzbekistan. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 3(1). 22-29.

2. PA Hakimov, DS Toshpo'latov. (2021). Blended learning asosida o'quv jarayonini tashkil etish masalalariga doir. *Academic research in educational sciences*, 2(4). 209-215.

5. Мамажонов, А. Т. (2022). ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОВЕДЕНИЯ МАРЖИНАЛЬНОГО АНАЛИЗА В ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТАХ. *Models and methods in modern science*, 1(10), 4-8.

6. Мамажонов, А. Т., & Қодиров, Ш. Қ. (2022). ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ ВА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАР СОҲАСИДАГИ ИЛФОР ХОРИЖИЙ ТАЖРИБАЛАР: КЕЙС-СТАДИ. *Academic research in modern science*, 1(10), 4-7.

Мамажонов, А. Т., Юлдашев, Б., & Фозилжонов, И. С. (2016). ВЗАИМОСВЯЗЬ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА И ЭКОНОМИКИ ПРЕДПРИЯТИЯ. *ИННОВАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ: теория и практик*